

## XALQ O‘YINLARI ORQALI BOLALARDA JISMONIY BARKAMOLLIKNI TARBIYALASH

Abdubannonova Bibixojar Iqboljon qizi

Qo‘qon univertseti

Maktabgacha ta‘lim yo‘nalishi 2-kurs talabasi

+998 90 084 02 02

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20355256>

**Annotatsiya:** Bu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda vatanparvarlik tuyg‘ularini shakllantirishda milliy o‘yinlarning o‘rni va ahamiyati keng yoritilgan. Milliy o‘yinlarning tarbiyaviy, jihatlari tahlil qildim, Shuningdek, maktabgacha ta‘lim muassasalarida milliy o‘yinlardan samarali foydalanish usullari bor. Maqolada milliy o‘yinlar orqali bolalarda Vatanga muhabbat, milliy g‘urur, masalalari keng yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** xalq o‘yinlari, jismoniy barkamollik, bolalar tarbiyasi, harakatli o‘yinlar, sog‘lom turmush tarzi, jismoniy rivojlanish, estetik tarbiya, jamoaviylik, ma‘naviy tarbiya, bolalar faoliyati, sog‘lom avlod, tarbiyaviy o‘yinlar.

Bugungi globallashuv jarayonlari jadallashib borayotgan bir davrda yosh avlodni milliy ruhda tarbiyalash, ularda Vatanga sadoqat va muhabbat tuyg‘ularini shakllantirish dolzarb pedagogik muammolardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, maktabgacha yoshdagi bolalar tarbiyasida bu masala yanada muhim ahamiyatga ega. Chunki aynan shu davrda bolaning shaxsiyati shakllanadi, uning dunyoqarashi o‘zgartirish mumkin bo‘ladi. Maktabgacha yosh davrida bola ko‘proq o‘yin orqali o‘rganadi. O‘yin bu bolaning asosiy faoliyati bo‘lib, u orqali bola atrof-muhitni biladi, bog‘chada bolani shaxs sifatida shakllanadi. Shu sababli pedagoglar o‘yin jarayonidan samarali foydalanish tarbiyaviy jarayonning ajralmas qismi hisoblanadi. Milliy o‘yinlar xalqimizning ko‘p asrlik tajribasi asosida shakllangan bo‘lib, u uyinlar o‘zida milliy qadriyatlar, urf-odatlar, an‘analar merosni shakllantiradi. Bu o‘yinlar orqali bolalarda milliy o‘zlikni anglash, Vatanga muhabbat tuyg‘ulari shakllanadi. Milliy o‘yinlarning asosiy mohiyati; xalqning turmush tarzi, dunyoqarashi, qadriyatlari va urf-odatlarini o‘zida aks ettiradi. Vatanparvarlik tushunchasi o‘zi bu shaxsning o‘z Vataniga bo‘lgan muhabbati, sadoqati, hurmati anglatadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda vatanparvarlikni shakllantirish ularning yoshiga mos ravishda amalga oshirilishi zarur. Bulmasa bolalar qiynalib qolishadi. Bu qisimda murakkab narsalarni oddiy qilib tushuntirish zarur. O‘yin orqali bolalar murakkab narsalarni osson qabul qiladi. Milliy o‘yinlar orqali bolalarda vatanparvarlik tuyg‘ularini shakllantirish quyidagi yo‘nalishlarda amalga oshiriladi:

Ko‘plab milliy o‘yinlar orqasida jasorat, mardlik, do‘stlik, sadoqat kabi fazilatlar yotadi. Masalan, “Kurash”, “Chillak”, “Arqon tortish”, “Oq terakmi, ko‘k terak” kabi o‘yinlar bolalarda raqobat, bardoshlilik va jamoaviylikni rivojlantiradi. Bu o‘yinlar orqali bolalar o‘zaro hurmat qilishni, qoidalarga rioya etishni va halollikni o‘rganadi. O‘yin jarayonida tarbiyachi bolalarga o‘yin kelib chiqishi, uning ahamiyati va milliy qadriyatlar bilan bog‘liqligi haqida tushuntirish berishi mumkin. Bu bolalarda milliy o‘zlikni anglashni rivojlantiradi. Ko‘pincha milli o‘yinlarimiz jamoa bulish halollik birlashsalar yutishlari aniq bo‘lgan uyinlar kop. Bolalar milliy o‘yinlar oynash orqali xalqimizning madaniy merosini avaylab asrash va faxirlanishni orgatadi. Bu bolalarning milliy g‘ururini oshiradihamda Vatanga bo‘lgan muhabbatini mustahkamlaydi. Maktabgacha ta‘lim muassasalarida milliy o‘yinlardan foydalanish metodikasi asosan:

- o‘yinlarni bolalarning yosh xususiyatlariga mos tanlash;
- o‘yin jarayonini qiziqarli va faol tashkil etish;

- bolalarning individual xususiyatlarini inobatga olish;
- tarbiyaviy maqsadni aniq belgilash;
- xavfsizlik qoidalariga rioya qilish.

O'yin jarayonida bolalarning faolligini oshirish, ularga mukofotlar va yaxshi muhit yaratish muhim o'rin tutadi. Milliy o'yinlarning ijtimoiy ta'siri bolalarda ijobiy emotsiallari rivojlanadi, asabiylikni kamaytiradi, oziga va yon atrofidagilarga ishonchi ortadi, va oxirgisi do'stlariga kelajakda hamkasblariga chiqishib ketishi osonlashadi. Va bolalar xar xil oyin orqali xis tuygularini erkin aytishni o'rganadi bu tarbiyachi uchun ham ota oana uchun ham yaxshi natija buladi. Menga eng yoqadigan uyin bu oq terakmi kok terak bu uyinda bolajonlar bir birlariga ishonishadi ham jihat bulishadi ayniqsa roparadegi qarshi jamodegi inson yutqazib ozlarini jamolariga qushilsa bolalardan baxtli inson yoq.

Xulosa qilib aytganimda, milliy o'yinlar bog'cha yoshdagi bolalarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda muxim jihat hisoblanadi. Ular orqali bolalarda milliy qadriyatlarga hurmat, Vatanga muhabbat, jamoaviylik faoliyatlari yanada rivojlanadi. Milliy o'yinlardan samarali foydalansak kelajak avlodni barkamol, aqilli va vatanparvar insonlar etib tarbiyalash mumkin. Shu sababli ta'lim-tarbiya jarayonida milliy o'yinlardan keng foydalanish zarur. Bitta bog'chalarda emas balki uydaxam o'ynasa maqsadga muvofiq buladi.

### **Adabiyotlar, References, Литературы:**

1. O'zbekiston Respublikasining Qonuni. "Ta'lim to'g'risida". – Toshkent, 2020-yil 23-sentabr, № O'RQ-637-son.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori. "Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to'g'risida". – Toshkent, 2020-yil 22-dekabr, № 802-son.
3. "Ilk qadam" maktabgacha ta'lim tashkilotining davlat o'quv dasturi (takomillashtirilgan ikkinchi nashr). – Toshkent, 2022.
4. Qodirova, F. R., Toshpo'latova, Sh. Q., Kayumova, N. M., Agzamova, M. N. Maktabgacha pedagogika. – Toshkent: Tafakkur, 2019.
5. Toxtaxodjayeva, M. X. (tahriri ostida). Pedagogika. Darslik. – Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2010.
6. Babayeva, D. R. Nutq o'stirish nazariyasi va metodikasi. – Toshkent: Barkamol avlod fayzi, 2018.